O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI OLIY ATTESTATSIYA KOMISSIYASI

«TASDIQLAYMAN»	**«MA’QULLANDI»**
Buxoro davlat universiteti	**O‘zbekiston Respublikasi Oliy**
rektor _____ O.X. Xamidov	**ta’lim, fan va innovatsiyalar**
	vazirligi huzuridagi OAK raisi
	_____ A.T. Yusupov
2024 y «_12_» «_fevral_»	**2024 y «_8_» «_05_»**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon

DASTURI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil «_8_» _05_ _354/4_ -sonli qarori bilan tasdiqlangan

Buxoro - 2024

KIRISH

Dasturning maqsadi – tayanch doktoranturada o‘qishga talabgorlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishga layoqatini aniqlash bo‘yicha o‘tkaziladigan imtixon mazmuni bilan tanishtirishdan iborat.

Dasturning vazifasi – tayanch doktoranturada o‘qishga talabgorlarning o‘z mutaxassisligi soxasida ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borish bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarini aniklashga qaratilgan.

Mazkur imtixon dasturi talabgorlarning quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlashga qaratilgan savollarni o‘z ichiga oladi.

- Qiyosiy tilshunoslik,
- Qiyosiy adabiyotshunoslik,
- Tarjimashunoslik.

Ixtisoslik fanidan imtixon topshiruvchi talabgorlarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yidagi talablar qo‘yiladi.

Talabagorlar:

 qiyosiy tilshunoslik fanining fanlararo xususiyati, qiyosiy tilshunoslik fanida ishlatilayotgan terminologik apparat (tilda tip tushunchasi, metatil tushunchasi, til universaliyalari, qiyoslash turlari va h.k.) haqida ***tasavvurga ega bo‘lishi;***

 qiyosiy tilshunoslikning fundamental masalalari bo‘yicha nazariy bilim asoslarini egallashi; qiyosiy tilshunoslik fanining ilmiy apparati; qiyosiy tilshunoslik fanining dolzarb masalalari; qiyosiy tilshunoslik fanida zamonaviy yo‘nalishlarning namoyon bo‘lishi va ularning talqini; qiyosiy tilshunoslik fanida qo‘llaniladigan zamonaviy metodlar va metodologiya; turli yo‘nalish maktablarida qiyosiy-tipologik muammolarning talqin qilinishi haqida ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;***

 qiyosiy tilshunoslik sohasida ilmiy izlanish olib borish; fanga oid bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan tanishib o‘quv, ilmiy va kasbiy jarayonlarda ularning natijalaridan foydalanish; qiyosiy tilshunoslik fanining metodologiyasini qo‘llay olish; lingvistik adabiyotlardan samarali foydalana bilish ***malakalarga ega bo‘lishi kerak***

- qiyosiy adabiyotshunoslik fani tarixi va nazariy asoslari;
- qiyosiy-tarixiy uslub;
- o‘rta asrlarda G‘arb va Sharq adabiyotida adabiy yo‘nalishlarning paydo bo‘lish tarixi va rivojlanishi;
- adabiyot shakllanishida xalq og‘zaki ijodining o‘rni;
- xalq og‘zaki ijodining ommaviy janrlari;
- G‘arb va Sharq adabiyoti bir-biriga ta’siri;
- milliy adabiyotning jahon adabiyoti bilan o‘zaro bog‘liqligi;
- G‘arb va Sharq adabiyoti rivojlanish bosqichlari va o‘zaro ta’sirini;
- turli davrlarga mansub G‘arb va Sharq adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodini;
- qiyosiy-chog‘ishtirma tahlilni qo‘llashni;

- adabiy janr tushunchasini;
- badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlarini;
- adabiy oqimlar va yo'nalishlarni;
- badiiy ijodda ma'no va shaklni;
- adabiyotlararo o'zaro ta'sirni ***bilishi kerak.***

Bulardan tashqari

- badiiy asar adabiy tahlilini;
- turli milliy adabiyotlarda muallif g'oyasi va asarning asosiy mavzusini tushunish va qiyoslash;
- xarakter, kompozitsiya va syujetni tahlil qila olish;
- badiiy tasvirning estetik ahamiyatini aniqlash;
- qiyosiy-tarixiy uslubni badiiy tahlilda qo'llash;
- badiiy adabiyot tilining o'ziga xosligi aniqlash ***malakalariga ega bo'lishi kerak***

 qadimiy tarjima maktablari va ularning fan, madaniyatga qo'shgan hissalari to'g'risidagi ma'lumotlar;

 tarjimaning leksik, grammatik va stilistik jihatlariga oid muammolar;

 informativ axborotlarni tarjima qilish usullari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;***

 asl nusxa va tarjima matnini lingvistik tahlil qilish usullari;

 tarjimada qo'llaniladigan asosiy metodlar;

 tarjimada leksik, grammatik va stilistik transformatsiya usullaridan foydalanish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***

 tarjima jarayonida lug'at bilan ishlash, mavzuga oid turli manbalardan foydalanish;

 ma'ruzalar davomida olingan nazariy bilimlarni amaliy tarjima jarayonida qo'llay olish;

 tarjima jarayonida asl matnning shakli, mazmuni va g'oyasini saqlash, badiiy, siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy, ilmiy-ommabop va rasmiy xarakterdagi matnlarni chet tilidan ona tiliga va ona tilidan chet tiliga tarjima qilish ***malakasiga ega bo'lishi kerak***

ASOSIY QISM

Qiyosiy tilshunoslik

Tilshunoslik fanining bir tarmog'i bo'lmish qiyosiy tilshunoslik fanining asosiy mazmuni. Fanning o'qitishning maqsad va vazifalari, uning predmeti va ob'ekti. Qiyosiy tilshunoslikning dolzarb masalalari to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Qiyosiy tilshunoslik fanining zamonaviy yo'nalishlari.

Qiyosiy tilshunoslik fanining asosiy tushunchalari

Qiyosiy tilshunoslikda ishlatiluvchi asosiy atamalar talqini: lingvistik – nolingvistik tipologiya, qiyoslash turlari: ichki – tashqi, substansional – nosubstansional; "shakldan-ma'noga" va "ma'nodan-shaklga" tamoyilining ishlatilishi, tilda tip tushunchasi, metatil tushunchasi va uning tillarni qiyosiy o'rganishdagi roli, til universaliyalari va ularning qiyoslanayotgan tillarda namoyon

bo‘lishi, izomorfizm va allomorfizm tushunchalari, qiyoslashda sinxron va diaxron yondashuv va h.k.

Turli til sistemalarini qiyosiy o‘rganishning zamonaviy metodlari va metodologiyasi

Qiyosiy-tarixiy metodning paydo bo‘lishi. F.Bopp, R.K. Rask, A.fon Shlegel, V.fon Shlegel, Ya.Grimm kabi olimlarning ushbu metod shakllanishiga qo‘shgan hissasi.

Qiyosiy metod qiyosiy tilshunoslik fanining asosiy qo‘llaniladigan metodi sifatida. An’anaviy metodlarning qiyosiy tilshunoslik fanida foydalanilishi: komponent tahlil, transformatsion tahlil, lingvostatistik tahlil kabilar.

Lingvomadaniyatshunoslik sohasida qo‘llaniladigan metodlar: dominant tahlil, diskurs tahlil, klaster tahlili, konseptual tahlil.

Tipologik tadqiqotlar tarixi

Tipologik tadqiqotlar tarixi. T. A. Amirova va B. A. Olxovikov hamda G. S. Klıchkovlar tomonidan ishlab chiqilgan tilshunoslik tarixi rivojlanishidagi asosiy bosqichlar.

Qiyosiy tilshunoslikning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi haqida D.J. Buranov taklif qilgan klassifikatsiya:

- Lingvistikaga oid ishlarning ilk marta paydo bo‘lishi;
- A.Arno va K.Lanslo tomonidan yaratilgan “Por-royal grammatikasi”, M.Qoshg‘oriyning “Devonu lug‘atit-turk” asari, A.Navoiyning “Muhokamatul lug‘atayn” asari;
- qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning fan sifatida shakllanishi.

Qiyosiy tilshunoslikda kategoriyalash muammolari

Ifoda planidagi til tizimi o‘lchov birliklarining tillararo adekvatligi va adekvat emasligi, ularning yaruslararo sinonimligi, ularning taskonomik masalalari. Tilning boshqa sathlarini tadqiq etishda kategoriyalash muammolari. Tilning leksik sathini tadqiq etishda kategoriyalash muammolari. Leksikani tizim sifatida qaralishi va tipologik yondashish imkoniyatlari

Grammatik va tipologik kategoriyalar

Qiyosiy tilshunoslikda kategoriyalash muammolari. Grammatik kategoriya haqida ta’limot. Grammatik va mantiqiy kategoriyalar o‘rtasidagi mutanosiblik. Tushuncha kategoriyalari. Funksional-semantik kategoriyalar. Grammatik-leksik maydon.

Tipologik kategoriyalar. Tipologik ma’no va tipologik forma. Tipologik kategoriyaning tillararo, yaruslararo va so‘z turkumlariaro xususiyatlari. Tipologik kategoriyalarning ifodalanishdagi mazmun va ifoda planlari birliklarining tillararo aloqasi.

Turli tillarning barcha sathlarida chog‘ishtirma tadqiqot muammolari

Lingvistik, lingvodidaktik va tarjima maqsadlarda turli qardosh va qardosh bo‘lmagan tillarning barcha sathlarida (fonetika va fonologiya, morfologiya va sintaksis, leksika va frazeologiya) chog‘ishtirma tadqiqot muammolari. Interferensiya muammolari.

Lingvistikaning zamonaviy yo‘nalishlarida qiyosiy-tipologik tadqiqotlar

a) Madaniyatlararo muloqot:

Madaniyatlararo aloqaning lingvistik asoslari; til va madaniyatlararo kommunikatsiya; qardosh va qardosh bo‘lmagan tillarning milliy – madaniy xususiyatlarini aniqlash muammolari; biologik va ijtimoiy jins tushunchalarining farqlanishi; ayol va erkak nutqiy xulqiga oid xususiyatlarni o‘rganish; qiyoslanayotgan tillar milliy-madaniy xususiyatlarining barcha til sathlarida namoyon bo‘lishi.

b) Gender lingvistikasi:

Qiyoslanayotgan tillarda grammatik rod kategoriyasi muammosi; “ayol” jinsini “erkak” jinsi bilan taqqoslashdagi ijtimoiy, madaniy va psixologik aspektlar; gender tushunchasini etnomadaniy an’ana va tilning milliy o‘ziga xosligi nuqtai nazaridan o‘rganish va taqqoslash; gender faktorlarining madaniyatlararo kommunikatsiya jarayoniga ta’siri.

Qiyosiy adabiyotshunnoslik

Adabiyotshunoslikda qiyosiy-tarixiy uslub taraqqiyoti

Qiyosiy adabiyotshunoslik fani tarixi va nazariy asoslari. Qiyosiy-tarixiy uslub tushunchasini paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi. Qiyosiy-tarixiy jarayonlarni uyg‘unligi. Mifologik maktabning taraqiyoti va uni qiyosiy-tarixiy uslubga bo‘lgan ta’siri (Ya. va V.Grimm, A.Kun, M.Myuller, F.I.Buslaev, A.N.Afanasev, O.F.Miller). Turli millat afsonalari umumiyligi. Madaniy-tarixiy maktab asoschilarini qiyosiy-tarixiy uslubga bo‘lgan ta’siri(I.Ten, V.Sherer, G.Lanson, G.Brandes, J.Lyuis, A.N.Рыpin, N.S.Tixonravov). Qiyosiy-tarixiy uslubni adabiyotlararo jarayonda rivoji. Tarixiy-tipologikkonvergensiya.

Badiiy adabiyot turlari muammosi

Aristotel va Gegel asarlarida adabiy nazariyalar. Adabiy janr tushunchasi. Epos xususiyatlari. Lirik janr xususiyatlari. Liro-epik asarlar. Dramaturgiya va liro-dramaturgiya. Dramaturgiyada lirizm va epos. Eposda milliy-tarixiy janrlar. Eposda romantik janrlar. Satirada janr xususiyatlari.

O‘rta asr va Uyg‘onish davri G‘arb va Sharq adabiyotining taraqqiyoti

O‘rta asr va Uyg‘onish davri G‘arb va Sharq adabiyotining qiyosiy tahlili, taraqqiyot yo‘nalishlari. Og‘zaki xalq ijodining adabiyotshunoslik rivojidagi o‘rni. Og‘zaki xalq ijodi janrlari. Uyg‘onish davri adabiyotining ahamiyati. Uyg‘onish davri adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodi. Sinxron va diaxron ta’sirlar.

Ma’rifatparvarlik adabiyoti

Milliy taraqqiyot demokratik tendensiyalarining nazariy-adabiy g‘oyalarga ta’siri. Ma’rifatparvarlik adabiyoti mutafakkirlari – Klod Gelvesiya va Iogann Vinkelman. Adabiyotshunoslik asoschisi – Iogann Gerder (1744-1803). Adabiyotshunoslikning tarixiy fan sifatida taraqqiyoti. G.F.V. Gegelning (1770-1832) hayotni dialektik anglash konsepsiyasi, san’atda ma’no va shakl, qarama qarshiliklar qonuniyatiga munosabati.

Adabiyotshunoslikda metodologik tendensiyalar

Milliy taraqqiyot demokratik tendensiyalarining nazariy-adabiy g‘oyalarga ta’siri. XIX asr mutafakkirlari pozitsiyasining qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili. Gegel

va Chernыshevskiylarning adabiyotshunoslik taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi va g‘oyalari ahamiyati.

Adabiyotshunoslikda pozitivizm taraqqiyoti

Ogyusta Kontning (1798-1857) ijobiy (pozitiv) falsafasi. Induktiv-deduktiv umumlashtirish tamoyili. Metafizik qarashlar. Germaniya adabiyotshunosligida (Yakob va Vilgelm Grimm) pozitivizm taraqqiyoti. Formalizm va strukturalizm rivoji. T.Benfey g‘oyalari va o‘zlashtirish nazariyasi.

XX asrda qiyosiy adabiyotshunoslik taraqqiyoti

AQSh (R.Uellek. V.Friderix), Germaniya (M.Kesting, K.Vays, K.Xamburger), Fransiya (Klod Pishua, Anri Granjar), Ruminiya (A.Dima), Slovakiya (D.Dyurishin), Rossiya (A.N.Veselovskiy) adabiyotshunoslik maktablari tadqiqotlarining qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ahamiyati. Milliy, mintaqaviy va jahon adabiyoti tushunchalari.

Badiiy adabiyot taraqqiyoti qonuniyati

Adabiy oqimlar va yo‘nalishlar. Adabiyot taraqqiyotining ilk

bosqichlarida adabiy oqimlar. Sentimentalizm va romantizm adabiy yo‘nalishlari xususiyatlari. Realizmning adabiy yo‘nalishlari. Adabiyot, modernizm va postmodernizm. Postmodernizm konsepsiyasining shakllanishi. Postmodernizm va “O‘zga so‘z” muammosi.

Badiiy asar qiyosiy tahlili

San’atda va hayotda shakl va ma’no tushunchasi. Shakl va ma’no – falsafiy tushunchalar. Shakl va ma’no o‘rtasidagi munosabat. Asarning «ichki shakl» va «tashqi shakl»i va uning san’at va adabiyotda mazmuni. San’at hayotni anglash vositasi. San’at – borliqni va ijtimoiy ong taraqqiyoti omili. Badiiy ijodda ma’no va shakl. Asarning ob’ektiv g‘oyasi va muallif g‘oyasi. Xarakter, kompozitsiya va syujet. Badiiy tasvirning estetik ahamiyati. Tasvirning hayotiyligi va xalqchilligi. Badiiy adabiyot tilining o‘ziga xosligi. Yozuvchi tilining manbalari. Til madaniyati taraqqiyotida yozuvchining roli.

Badiiy adabiyotning narratologik xususiyatlari

Badiiy asarning lisoniy xususiyatlari. Badiiy asarlarda adabiyotlararo dialogizm masalasi. Muallif obrazining badiiy asarda aks etishi. So‘zlarning ko‘chma ma’nosi (troplar va ularning turlari). Intonatsiya va sintaksis. Lingvokulturologik aspektda so‘zlarning ko‘p ma’noliligi. Yozuvchi tilining manbalari. Til madaniyati taraqqiyotida yozuvchining roli.

Tarjimashunoslik

Tarjimaning umumiy nazariyasi. Tarjimaning xususiy nazariyalari. Tarjimashunoslik fanining ob’ekti, maqsadi va vazifalari. Tarjimaning tilshunoslik bilan bog‘liq jihatlari.

Tarjimaning metodik aspektlari

Tarjima turlari. Tarjima birliklari va darajalari. Ma’lumotlar turlari. Terminologik lug‘atlar. Muqobil tarjima. Muqobillikning turlari.

Tarjimaning leksik-semantik muammolari

So‘z semantikasi va tarjima. Chet tili va o‘zbek tillarida so‘z ma’nolari hajmi va shakli o‘rtasidagi farqlar. Omonim so‘zlar va polisemantik so‘zlar tarjimasi. So‘z va kontekst. So‘z va so‘z birikmalari sinonimiyasi. Atoqli otlar, geografik nomlar, tashkilotlar nomlarini tarjima qilish. Terminlar tarjimasi. Qisqartma so‘zlar tarjimasidagi muammolar. “Tarjimonning sohta do‘stlari” muammosi. Leksik lakunalar.

Tarjimada leksik transformatsiyalar: konkretlashtirish, umumlashtirish, antonimik tarjima, tushirib qoldirish, so‘z qo‘shish, ma’noni kengaytirish, kompensatsiya.

Tarjimaning grammatik muammolari

Grammatik ma’no turlarini tarjimada ifodalash. Chet tili va o‘zbek tillarida gap strukturasi va undagi farqlar. Grammatik shakl va konstruksiyalarni tarjima qilish prinsiplari. Artikllar tarjimasi. Noaniq olmosh tarjimasi. Predloglar tarjimasi. Chet tilida erkalovchi va kichraytiruvchi affikslar, ularni tarjimada ifodalash muammolari.

Tarjimada grammatik transformatsiyalar: so‘z turkumlarini almashtirish, gap bo‘laklari o‘rnini o‘zgartirish, majhullik nisbatini aniqlik nisbat bilan almashtirish, grammatik sabablarga ko‘ra so‘z qo‘shish va so‘zni tushirib qoldirish, qo‘shma gapni sodda gap bilan almashtirish.

Infinitiv konstruksiyalar tarjimasi. Konversiya va tarjima. Qo‘shma so‘zlar tarjimasi. Fe’llarning bo‘lishsizlik shakli tarjimasi.

Tarjimaning stilistik muammolari

Uslubning tarjimaviy talqini. Matnning funksional-stilistik xususiyatlari. Badiiy matn tarjimasi. Perifrazalar tarjimasi. Sitatalar, jargonga oid so‘zlar tarjimasi. So‘z o‘yinlari tarjimasi. Reklama matnlarining stilistik xususiyatlari. Stilistik kompensatsiya usuli.

Tarjimaning pragmatik masalalari

Tarjimada kommunikatsiya elementlarini hisobga olish zaruriyati. Davr koloriti, joy kabi ekstralingvistik faktorlarni hisobga olish. Matnning g‘oyaviy yo‘nalishini tarjimada saqlash masalalari. Muallif – tarjimon aloqasi. Tarjimada asl matn muallifining ruhiyatini saqlash. Badiiy tarjimada kognitiv dissonans nazariyasi. Badiiy tarjimada kognitiv dissonansning kelib chiqishsabablari va yechimlari.

Tarjimaning lingvomadaniy muammolari

Realiya tushunchasi. Realiyalar klassifikatsiyasi. Tarixiy realiyalar tarjimasi. O‘lchov birliklari, geografik nomlar tarjimasi. Milliy xususiyatli frazeologik birliklar tarjimasi. Chet tili va o‘zbek tillarida murojaat shakllari va ularni tarjimada ifodalash. Taqlidiy so‘zlarni tarjima qilish muammolari. Transliteratsiya va transkripsiya. Kalka tarjima.

Badiiy tarjima muammolari

Badiiy tarjimada asl matnga sodiqlik muammosi. Badiiy tarjimada muallif va mutarjim aloqasi. O‘zbek adabiyoti namunalarini chet tillarga tarjima qilish masalalari. Jahon adabiyoti durdonalarini ona tiliga tarjima qilish. Badiiy tarjima tahlili muammolari.

Og‘zaki tarjima

Yozma va og‘zaki tarjima o‘rtasidagi farqlar. Fikrni og‘zaki bayon etish. Sanoq sonlar, atoqli otlar, geografik nomlar tarjimasida aniqlikka erishish muammolari.

Og‘zaki tarjima turlari: ikki tomonlama tarjima, ketma-ket tarjima, sinxron tarjima. Og‘zaki tarjimada xotiraning roli. Og‘zaki tarjimaga o‘rgatish mashqlari tipologiyasi. Og‘zaki tarjimada transformatsiyalardan foydalanish.

Og‘zaki tarjimada notiq nutqini yozma qayd qilish texnikasi. Notiq tomonidan bildirilgan fikrning asosiy informativ qismini ajratish. Referat-rezyume qilish usullari.

Avtomatlashtirilgan tarjima

Tarjima sohasidagi informatsion dasturlar yaratilish tarixi. Informatsion dasturlarning ishlash prinsiplari. Tarjimalarni xotirada saqlovchi dasturlar.

Matnni tayyorlash tizimi. Elektron lug‘atlar bilan ishlash. Transit, Catalist, Déjà vu kabi kompyuter dasturlari. Ko‘p tillik ABBYY Lingvo lug‘ati.

Sohalarga oid matnlar tarjimasi

Ilmiy, ilmiy-ommabop matnlar tarjimasi. Texnik tarjima. Rasmiy xujjatlar va ularni tarjimasi muammolari. Gazeta va publitsistik matnlar tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlari.

ADABIYOTLAR:

Qiyosiy tilshunoslik bo‘yicha

Asosiy adabiyotlar

Ingliz tili

1. Yusupov U. Contrastive Linguistics of the English and Uzbek Languages.- T.: Akademnashr, 2013.

2. Rasulova M. I. Osnovы leksicheskoy kategorizatsii v lingvistike. T. “Fan”, 2005.

3. Sternin I.A. Kontrastivnaya lingvistika Problemы teorii i metodiki issledovaniya. M. 2006.

4. Fayzullaeva E.M., Saidova M.S., Mavlyanova N.A. The Guidebook on Comparative Typology of the English, Russian and Uzbek Languages. Tashkent, 2010.

5. Buranov J.B. Sravnitelnaya tipologiya angliyskogo i tyurkskix yazыkov. M., 1983.

6. Bo‘ronov J. Ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. T.: O‘qituvchi, 1973

Nemis tili

7. Rasulova M. I. Osnovы leksicheskoy kategorizatsii v lingvistike. T. “Fan”, 2005.

8. Sternin I.A. Kontrastivnaya lingvistika Problemы teorii i metodiki issledovaniya. M. 2006.

9. Besch Werner / Wolf Norbert Richard. Geschichte der deutschen Sprache. –Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2009.

10. Binder H., Buhlmann R. Hinführung zur naturwissenschaftlich-technischen Fachsprache. Elektronik/Informatik.- München: Max Hüber Verlag, 1995

11. Brundin G. Kleine deutsche Sprachgeschichte. –München: Wilhelm Fink Verlag, 2004

12. Ernst P. Deutsche Sprachgeschichte. –Wien: WUV, 2015

13. Wolf G. Deutsche Sprachgeschichte. –Tübingen: Afranck Verlag, 1999

Ispan tili

14. Rasulova M. I. Osnovы leksicheskoy kategorizatsii v lingvistike. T. "Fan", 2005.

15. Sternin I.A. Kontrastivnaya lingvistika Problemы teorii i metodiki issledovaniya. M. 2006.

16. José Ignacio Hualde, Antxon Olarrea y Ana María Escobar. Toledo, España 2006

17. M.ª Luz Gutiérrez Arraus, Manuel Esgueva Martínez. "Introducción a la lengua española". Madrid., 2005.

Fransuz tili

18. Rasulova M. I. Osnovы leksicheskoy kategorizatsii v lingvistike. T. "Fan", 2005.

19. Sternin I.A. Kontrastivnaya lingvistika Problemы teorii i metodiki issledovaniya. M. 2006.

20. Andreas Adoph von Merian, Julius Heinrich Klaproth. Principes de l'étude comparative des langues : Suivis d'observations sur les racines des langues sémitiques. Cambridge Library Collection – Linguistics. Publisher: Cambridge University Press, Year: 2010. ISBN: 9780511695285,9781108006859

Qo'shimcha adabiyotlar

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz.

22. Vasileva N.M. Piskova L.P. Teoreticheskaya grammatika fransuzskogo yazыka. M., 1991.

23. Vejbiska A. Semanticheskie universalii i opisanie yazыkov. M., 1999.

24. Gorodeskiy B.Yu. K probleme semanticheskoy tipologii. M., 1989.

25. Gulыga Ye.V., Shendels Ye.I. Grammatiko-leksicheskie polya v sovremennom nemeskom yazыke. M.: Prosveщenie, 1969

26. Jurinskaya M.I. Lingvisticheskaya tipologiya.// Obщee yazыkoznanie. Vnutrennyaya struktura yazыka. M.: Nauka, 1072.

27. Zeleneskiy A.L. Sravnitelnaya tipologiya osnovnыx yevropeyskix yazыkov. M. 2004.

28. Kanselson S.D. Tipologiya yazыka i rechevoe mыshlenie. L.: Nauka, 1972.

29. Klimov G.A. Osnovы lingvisticheskoy komparativistiki. M.: Nauka, 1990.

30. Kravchenko A.V. Yazыk i vospriyatie. Kognitivnыy aspekt yazыkovoy kategorizatsii. Irkutsk, 2004.
31. Maslova V.A. Kognitivnaya lingvistika. Minsk, 2004
32. Maslova V.A. Sovremennыe napravleniya v lingvistike. M., Izdatelskiy sentr "Akademiya", 2008.
33. Maxkamova G.T. Mejkulturnыe izmereniya sennostnыx orientatsiy, yazыka, diskursa i povedeniya. Tashkent, 2012.
34. Benjaminov J.R. Vergleichende Typologie der deutschen und usbekischen Sprache. T.1984.
35. Guillermo Rojo. "El lenguaje, las lenguas y la lingüística". Universidad Santiago de Compostela, 1986.
36. María Josep Cuenca, Joseph Hilferty. "Introducción a la lingüística cognitiva". Barcelona, 2007.
37. Moskalskaja O.I. Deutsche Sprachgeschichte. M.,Vysschja schkola, 1985
38. Schmidt W. Geschichte der deutschen Sprache. Berlin, 1989
39. Stedje Astrid. Deutsche Sprache gestern und heute. Wilhelm Fink Verlag, 2007.

Axborot manbalari

40. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
41. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
42. www.mineconomy.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)
43. www.mehnat.uz (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi)
44. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
45. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)
46. www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)
47. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)
48. http://www.bne. es.
49. http://www. ben.es/castella/elome.htm.
50. www.macmillanenglish.com/readers
51. www.lexikon.freenet.de/Literaturdidaktik
52. www.francophonnie.hacherre-livre.com
53. www.portail.lettres.net
54. http: //www.rae.es

Qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha

Asosiy adabiyotlar

1. A.N.Veselovskiy i sravnitelnoe literaturovedenie[1939-1940];
Literaturnыe techeniya kak yavlenie mejdunarodnoe[1867]/
V.M.Jirmunskiy// Jirmunskiy V.M. Sravnitelnoe literaturovedenie.
- L., 1979.
2. Dyurishin, D. Teoriya sravnitelnogo izucheniya literaturы[1972] / Per. so

slovas. / D.Dyurishin. - M., 1979.
3. Jirmunskiy, V.M. Problemы sravnitelnogo izucheniya literatur[1961];
4. Konrad, N.I. K voprosu o literaturnыx svyazyax/ N.I.Konrad// Konrad N.I. Zapad i Vos-tok. – M., 1966.
5. Samarin R.M. O sovremennom sostoyanii sravnitelnogo izucheniya literatur v zarubejnoy nauke. V kn.: Vzaimosvyazi i vzaimodeystvie natsionalnыx literatur. – M.: 1961

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Gale Contextual Encyclopedia of American Literature. 2009, Gale. USA
2. Oxford companion to English literature. Margaret Drabble. Oxford University press. 2000.
3. Averinsev S.S. Kategorii poetiki v smene literaturnыx epox/ S.S.Averinsev,
4. Grinser, P.A. Epoxi vzaimodeystviya literatur Vostoka i Zapada/ P.A.Grinser. – M., 1997.
5. Pospelov, G.N. Stadialnoe razvitie yevropeyskix literatur/ G.N.Pospelov. - M., 1988.
6. Chernes, L.V. Literaturnыe janrы(problemы tipologii i poetiki) / L.V.Chernes. - M., 1982. [Ch. I: «Tipologiya janrov i literaturnыy protsess».]
7. Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. – L.: 1940
8. Timofeev A.I. Osnovы teorii literaturы. – M.: Prosveщenie, 1976
9. Urnov D., Urnov M. Literatura i dvijenie vremeni. – M.: Xudojestvennaya literatura, 1978

Internet saytlar

1. http://youreng.narod.ru/teoper.html
2. http://www.twirpx.com
3. http://www.uz-translations.net
4. http://www.booksbooksbooks.ru
5. http://www.literature-online

Tarjimashunoslik bo'yicha

Asosiy adabiyotlar

Ingliz tili

1. Muminov A. A Guide to Consecutive Translation. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2013. –320 p.
2. G'ofurov I, Mo'minov O, Qambarov N. Tarjima nazariyasi. –T.: Tafakkur-Bo'ston, 2012. – 216 b.
3. G'ofurov I. Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish. – Toshkent -2008, 117 b.

Nemis tili

1.Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. –T.: Fan, 2005.
2.Sodikov Z. Amaliy tarjima. Namangan, 2019.
3. Fyodorov A.V. Osnovы teorii perevoda. M., 2012 . 2-izd.
4. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. T., 2018., 2-nashri.
5. Nord K. Fertigkeit Übersetzen. Berlin 2014.

6.G‘ofurov I. Tarjimonlik mutaxassisdligiga kirish.– T.: Mehridaryo, 2008.
7. Jumaniyozov Z. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. T., 2019.
Fransuz tili
1. Guidère M. Introduction à la traductologie. Penser à la traduction : hier, aujourd’hui, demain. 3ème édition. – Louvain-la-Neuve:Editions de Boeck Supérieur, 2016. – 182 p.
2. Gak V.G., Grigorev B.B. Teoriya i praktika perevoda. Fransuzskiy yazыk. M.: Interdialekt+,2000. – 455 s.
3. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 352 bet.
Ispan tili
1. Anthony Pym. Teorías contemporáneas de la traducción. España -2016
2. Francisco Lafarga, LuisFegenaute. Historia de la traduccion en España. Salamanca-2004.
3. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent- 1983.
Qo‘shimcha adabiyotlar
Ingliz tili
1. Muminov O, Xodjayeva M, Mirzamuhamedova R, Alimova Z ... Practical Course in Translation. – T.: O’zbekistonMilliykutubxonasonashriyoti, 2011. – 192 b.
2. Newmark P. Approaches to Translation. – Hertfordshire: Prentice Hall, 1988. – 234 p.
3. Mo‘minov O, Qo‘ldoshev A, Hoshimov O‘. English for translators. – T.: Sharq, 2005. – 384 b.
Nemis tili
1. Raximov X.R. Tarjimashunoslik va olmonshunoslikdan ocherklar. T., TDPU 2016,
2. Komilov N. Bu qadimiy san’at. –T., 1981.
3. Musaev K.M. Leksiko-frazeologicheskie voprosы perevoda. –T.:
4. Musaev Q. Badiiy tarjima va nutq madaniyati.–T.: O‘qituvchi,1976.
5. Sovetы perevodchiku: Ucheb. posobie po nem. yaz. dlya vuzov/ K.G.Krushelniskaya, M.N. Popov. – 2-ye izd., dop. – M.: Moskva: Astrel: Ast, 2004.
6. Tyulenev S.V. Teoriya perevoda: Uchebnoe posobie. – M.: Gardariki, 2004.
Fransuz tili
1. Fedorov A.V. Osnovы obщey teorii perevoda. M.:Vыsshaya shkola, 1983. – 303 s.
2. Vlaxov S., Florin S. Neperevodimoe v perevode. M.:IMO, 1980. –344 s.
3. Minyar-Beloruchev R.K. Kurs ustnogo perevoda. Fransuzskiy yazыk. M.: Moskovskiy litsey, 2000. – 144 s.
4. Skvorsov G.P. Uchebnik po ustnomu posledovatelnomu perevodu. Fransuzskiy yazыk. Sankt-Peterburg. 2000. – 160 s.
5. Henry Van Hoof, Histoire de la traduction en Occident, – Paris: Duculot, 1991.
Ispan tili
1. Cagnolati, Beatriz E. La traductología: Miradas para comprender su complejidad. Argentina-2012.
2. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 352 bet.

3. V.S. Vinogradov. Vvedenie v perevodovedenie. Moskva- 2002.

Axborot manbalari

Ingliz tili

1. http://www.conferenceinterpreters.ca/
2. http://www.universelanguage.com/simultaneousinterpretation
3. http://www.conference-interpreting.ru/
4. http://studystuff.ru/articles/preczizionnaya-informacziya.html
5. http://www.bbc.co.uk\worldservice\learningenglish/
6. www.granddictionnaire.com
7. www.translatordirectory.com
8. http://www.uz-translations.net

Nemis tili

1. www.schubert-verlag.de/aufgaben/uebungen_b1/b1_uebungen_index.htm
2. www.fachdidaktik-einecke.de/
3. www.mein.deutsch
4. www.hueber.de/aspekte
5. www.deutsch.unterricht.de

Fransuz tili

1. www.lingua.ru
2. www.edufrance.fr
3. www.granddictionnaire.com
4. www.lexicool.com
5. www.traduction-litteraire.com
6. www.larousse.fr
7. www.linguistik-online.de

Ispan tili

1. www.lingua.ru
2. www.edufrance.fr
3. www.granddictionnaire.com
4. www.lexicool.com
5. www.traduction-litteraire.com
6. www.larousse.fr
7. www.linguistik-online.de
8. www.cervantes.es
9.www.marco.ele
10.www.cervantes.es

10.00.06. – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish sinovlari

BAHOLASH MEZONLARI

Tayanch doktoranturaga kirish sinovlari yozma ish shaklida o‘tkaziladi. Shundan har bir variantda 5 tadan savol bo‘ladi.

Talabgorning yozma ish javobiga qo‘yiladigan talablar	Baholash ballari
a) berilgan savolni to‘liq bilsa, uning mohiyatini tushunsa, u bo‘yicha ijodiy fikrlay olsa, tasavvurga ega bo‘lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog‘lay olsa, xulosa va qaror qabul qilsa, o‘z fikrini to‘liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, mustaqil fikri asosida xulosalar chiqara olsa.	86-100
b) berilgan savolni yetarli darajada bilsa, uning mohiyatini tushunsa, savol yuzasidan tasavvurga ega bo‘lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog‘lay olsa, savolning nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha ochib bera olsa, o‘z fikrini to‘liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, xulosalar chiqara olsa.	71-85
v) berilgan savolni qisman bilsa, u to‘g‘risida qisman tasavvurga ega bo‘lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo‘yicha o‘z fikrini bayon qila olsa, gramatik xatolarga yo‘l qo‘ysa, qisman xulosalar chiqarsa	55-70
g) berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lmasa, o‘z fikrini to‘liq bayon qila olmasa va umuman javob yozmaslik.	0-55